



200100. Buxoro sh., Navoiy shoh ko'chasi, 6-uy. Tel.: (365) 223-95-86, e-xat: bux.manaviyat@exat.uz

01/ 302

“18” iyul 2025 yil

Buxoro davlat universiteti Magistratura bo'limi “Komputer tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti” yo'nalishidagi magistiri Ismatov Bobomurodga

TAVSIFNOMA

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyati bo'limida ishlab kelayotgan Ismatov Bobomurod o'z faoliyati davomida viloyatdagi ma'naviy-ma'rifiy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan ko'plab kontentlar tayyorlab, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

Ushbuni inobatga olgan holda Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi Buxoro viloyati bo'limi tomonidan mazkur tavsifnoma Ismatov Bobomurodga taqdim etiladi.

Ismatov Bobomurod o'zining o'quv jarayonidagi intilishi, madaniy-ma'naviy sohalarga bo'lgan e'tibori va jamoat ishlaridagi faolligi bilan ajralib turadi.

Ismatov Bobomurod sohaga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyati bo'limi tomonidan chiqarilgan me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalarni yaxshi o'zlashtirgan.

Ismatov Bobomurod ish faoliyati davrida ma'naviy-g'oyaviy jihatdan yetuk, mamlakatimiz ichki va tashqi siyosatini, xalqaro maydonda ro'y berayotgan jarayonlar to'g'risida teran tushunchaga ega hamda ularni to'g'ri tahlil qila olish qobiliyatini sohibi, keng dunyoqarash, mustaqil fikrga ega o'z ishiga ma'suliyat bilan yondashuvchi mutaxassis sifatida o'zini ko'rsata oldi.

U qisqa davr ichida tabiatan vazminliligi, samimiyligi va mehnatsevarligi, ishga mas'uliyat bilan yondashishi, o'z bilim-ko'nikmalarini oshirishga intilishi, namunali xulqi bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyati bo'limi jamoasining e'tiborini qozondi.

Ismatov Bobomurod kelajakda o'z izlanishlarini davom ettirishiga va o'zi ko'zlagan maqsadlariga erishishiga ishonamiz.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Buxoro viloyati bo'limi rahbari

M.D.Pardayeva